



“Tasdiqlayman”
“Kokand Future Invest”
MChJ direktori

 **A. Shodmonov**

“25” may 2026 y.

Qurilish obyektida nazorat o‘lchovini o‘tkazish bo‘yicha

TEXNIK TOPSHIRIQ

Toshkent – 2026-yil

I. Umumiy ma'lumotlar va texnik talablar

Loyiha nomi: Qurilish obyektida nazorat o'lchovini o'tkazish

Buyurtmachi: "Kokand Future Invest" MChJ

II. Tanlov ishtirokchilariga qo'yiladigan talablar

Tanlovda ushbu texnik topshiriq shartlariga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli texnika va tajribaga ega bo'lgan xodimlari mavjud Qurilish loyihalarini ekspertizadan o'tkazish uchun akkreditatsiya qilingan yuridik shaxslar ishtirok etishlari mumkin:

Asosiy talablar

T/R	Asosiy ma'lumotlar va talablar	Asosiy ma'lumotlarning mazmuni va talablari
1.	Buyurtmachining nomi	"Kokand Future Invest" MChJ
2.	Xizmat ko'rsatishga qo'yiladigan umumiy talablar	Qurilish obyektida nazorat o'lchovini o'tkazish. Xizmatlar mazkur texnik topshiriq talablari asosida qabul qilinadi. Texnik topshiriqda ko'zda tutilmagan barcha holatlar amaldagi qonunchilikda, xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021 yildagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-sonli qarorida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.
3.	Moliyalashtirish manbai	"Kokand Future Invest" MChJ o'z mablag'lari hisobidan
4.	Barcha xarajatlar reestrini shakllantirgan holda audit, nazorat o'lchovini o'tkazilishi ko'zda tutilgan qurilish obyektining yig'ma ekspert xulosasi qiymati	70,3 mlrd so'm

5.	Obyektda qurilish-montaj ishlarini nazorat o'lchovidan o'tkazish uchun qo'yiladigan talablar	Qurilish obyektida nazorat o'lchovi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021 yildagi "Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-sonli qarori 4-ilovasiga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda to'lovga topshirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomalarini (F-2, F-3) jamlanma hisobot (накопительный ведомость) ko'rinishida yig'ish, shuningdek, har bir topshirilgan hisobotni bajarilganligni tasdiqlovchi ishchi chizmalar, yopiq ishlar dalolatnomalari va boshqalarni to'plash hamda belgilangan tartibda tekshirish; obyektda tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlariga nisbatan qo'shimcha bajarilgan ish hajmlariga aniqlik kiritish hamda jamlanma hisobot (накопительный ведомость) asosida taqqoslash dalolatnomasi (сличительный ведомость) shakllantirish; Qurilish obyekti bo'yicha tayyorlangan shaharsozlikka oid hujjatlar va hisobotlar to'liq va to'g'riligini tekshirish; qurilish obyektidagi haqiqatda bajarilgan fizik ish hajmlarini loyiha hujjatlari va bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisob-faktura (dalolatnoma) asosida o'lchovdan o'tkazish; bajarilgan ishlar uchun to'langan va taqdim etilgan narxlarning pul miqdorini tekshirish; loyiha hujjatlarida va hisobotlarda nazarda tutilgan ish turlarining haqiqatda bajarilganligini ish turlari bo'yicha aniqlash; obyektda haqiqatda bajarilgan ish hajmlarida loyihadan chetga chiqish holatlarini ko'rsatib berish; qurilish obyektida qurilish materiallarining hajmini, narxini, kalkulyatsiyasini, texnik parametrlarini va sifatini bosh pudratchi tashkilot tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisob-faktura, sertifikat, laboratoriya xulosalari va boshqalar) asosida o'rganib, buyurtmachi va puradtchi tashkilot o'rtasida
----	---	--

	o'zaro rasmiy kelishuv, pudrat shartnomasi, loyiha hujjatlari va hisobotlar asosida qo'llanilganligini tekshirish; haqiqatda bajarilib, hisobotlarda aks ettirilgan asbob-uskunalar va kommunikatsiya tizimlarining sinovdan o'tkazilganligini tekshirish; nazorat o'lchovi natijalarining maxfiylikini ta'minlash; hisobotlarda arifmetik xatoliklar mavjudligini va boshqa hisob-kitoblarni tekshirish; obyektning loyiha-smeta hujjatlarida nazarda tutilgan xususiyatlarga va maqsadlarga muvofiqligini tekshirish; to'lov amalga oshirilgan hisobotlarni qaytadan to'lovga taqdim etilmaganligi va bajarilgan ishlar dalolatnomalarida ish turlarining takroran aks ettirilmaganligini tekshirish; bajarilgan ishlar dalolatnomalari tarkibini shaharsozlik normalari va qoidalari talablariga muvofiqligi hamda ish turlari tarkibida bo'lgan asbob-uskunalarining alohida aks ettirish holatlarini tekshirish; haqiqatdagi ish sharoitlari va ishlar tasnifiga (<i>baland binolar uchun qo'shimcha koeffitsient, qish mavsumidagi qimmatlash va h.k.</i>) mos kelmaydigan ko'rsatkichlarning qo'llanilmaganligini tekshirish; bajarilgan ishlar dalolatnomalarida qurilish normalari va qoidalari talablariga zid bo'lgan ish turlari va pudrat shartnomasiga ko'zda tutilmagan ximatlar va ish turlari kiritilmaganligini tekshirish; obyektda ishlatilgan qurilish materiallari va asbob-uskunalarining yopiq ishlarni qabul qilish olish dalolatnomalari, ijro chizmalari, mualliflik nazorati jurnali ma'lumotlariga muvofiqligini tekshirish; nazorat o'lchovini texnik xavfsizlik talablariga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshirish; qurilish obyekti bo'yicha tayyorlangan
--	--

		shaharsozlik hujjatlari va hisobotlarning to'g'riligini tekshirish; bosh pudratchi tashkilot tomonidan ish hajmlari va to'lovlar bilan bog'liq taqdim etilgan hujjatlarni Davlat organlariga berilgan hisobotlar bilan muvofiqligini solishtirish, kamchiliklar aniqlanganda buyurtmachiga taklif va ko'rsatmalar berish (<i>bunda zarur hollarda buyurtmachi tomonidan davlat organlariga murojaat yuborishga ko'maklashish</i>).
6.	Qurilish obyektida nazorat o'lchovini o'tkazish bo'yicha yakuniy xulosaga (dalolatnomaga) qo'yiladigan talablar.	Yakuniy xulosada qurilish obyektida haqiqatda bajarilgan ishlar qiymati jamlanmasi quyidagicha aks ettirilishi lozim: Qurilish obyekti to'g'risidagi ma'lumotlar (jumladan, obyekti nomi, manzili, qurilishga asos, buyurtmachi, loyihachi va pudratchi korxona rekvezitlari va shu kabilari); qurilish obyektida pudrat sharnomasiga asosan belgilangan ish hajmalari va nazorat o'lchovi natijasida aniqlangan haqiqatda bajarilgan ish hajmlari miqdori hamda har bir ish turi bo'yicha farqi; aniqlangan kamchiliklarni amaldagi qonuchilik hujjatlari, shaharsozlik normalari va qoidalari bilan asoslanishi; loyiha hujjatlariga kiritilgan o'zgartirishlar va ularni rasmiylashtirishda belgilangan talabga rioya etilishi; bajarilgan qurilish-montaj ishlari to'g'risida hisobot; bajarilgan qurilish-montaj ishlar yuzasidan o'tkazilgan nazorat o'lchovi ma'lumotlari; asbob-uskunalar va kommunikatsiya tizimlarining sinovdan o'tkazilgan holda bajarilgan ishlar tarkibiga kiritilganligini tekshirish natijalari; qabul qilingan dalolatnomalarida (F-2 F-3) ko'rsatib o'tilgan ish hajmlarining amalda bajarilganligi; qurilish-montaj ishlarining amalda bajarilgan barcha ish hajmlari hisoboti; obyektda amalga oshirilgan qo'shimcha ish hajmlari hisobi;

		amalda bajarilgan ishlarni loyiha-smeta hujjatlari bilan muvofiqligini hisobi; nazorat o'lchovi natijalariga ko'ra, aniqlangan kamchiliklar va takliflar to'liq bayon etilishi zarur: qurilish obyektida nazorat o'lchovini o'tkazish natijasiga ko'ra hisobotlar reestr qilingan holda yig'ma jild shaklida taqdim qilinadi.
7.	Ishlarni bajarish va xizmat ko'rsatish joyi	Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri, "Aziztepa" MFY, Movarounnahr ko'chasi, 84/11-uy, 84/15-uy, 84/16-uy.
8.	Bajariladigan ishlarning va ko'rsatiladigan xizmatlarning murakkabligida kelib chiqib ishtirokchilarga qo'yiladigan talablar.	Ishtirokchilar quyidagi mezonlarga muvofiq bo'lishi kerak: qurilish loyihalarini ekspertizadan o'tkazish uchun akkreditatsiya guvohnomasi mavjud bo'lishi lozim (<i>Tasdiqlash uchun guvohnoma nusxasi taqdim qilinadi</i>); ishtirokchi shtat birligida kamida 2 nafar Kompetensiyani rivojlantirish instituti tomonidan taqdim qilingan III toifa (<i>QR kod bilan tasdiqlangan</i>) sertifikatga ega xodimlar mavjud bo'lishi lozim. (<i>Ushbu xodimlarning mehnat shartnomasi, ishga qabul qilish buyrug'i va III toifa sertifikat nusxasi taqdim qilinadi</i>); ishtirokchi oxirgi 24 oyda kamida 3 ta o'xshash qurilish obyektida nazorat o'lchov ishlarini bajargan bo'lishi kerak. (<i>Tasdiqlash uchun qurilish obyektlarida o'tkazilgan nazorat o'lchovlari ro'yxati taqdim qilinadi</i>); ishtirokchining Milliy yoki Xalqaro standartlashtirish tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001 sertifikatlaridan biri yoki barchasi mavjudligi afzalroq hisoblanadi. (<i>Tasdiqlash uchun sertifikat nusxasi taqdim qilinadi</i>); Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi bo'yicha reyting ko'rsatkichi yuqoriligi afzalroq hisoblanadi. (<i>Savdo-sanoat palatasining rasmiy veb-sayti orqali baholash sanasida tekshiriladi</i>).

9.	Xizmat sifati va kafolati bo'yicha talablari.	Qurilish obyektida nazorat o'lchovi O'zbekiston Respublikasida amaldagi qonun va qonunosti hujjatlari, Vazirlar Mahkamasining 20.05.2021 yildagi 321-sonli qarori asosida amalga oshirilishi shart. Ijrochi nazorat o'lchovini amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq to'g'ri o'tkazilganligiga hamda nazorat o'lchovi natijasiga ko'ra aniqlangan kamchiliklar, hisob-kitoblar va dalolatnomani qonunchilik hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilganligiga javobgar hisoblanadi. Ijrochi shartnoma muddatidan qat'iy nazar o'tkazilgan nazorat o'lchovi xulosasi yuzasidan uchinchi shaxs oldida buyurtmachi manfaatlarini himoya qilish majburiyatini oladi (kafolatlaydi).
10.	Xizmatni yetkazib berish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 90 (to'qson) kun
11.	Hujjatlar tarkibi (<i>buyurtmachi va pudratchi tashkilot tomonidan taqdim etiladi</i>)	Buyurtmachi va pudratchi korxona vakili yoki vakillariga nazorat o'lchovida qatnashish va dalolatnomani imzolash huquqini beruvchi buyruq. Loyiha-smeta hujjatlari, loyiha-smeta hujjatlariga ekspertiza tashkilotining ekspert xulosasi, qurilish-montaj ishlarini amalga oshirish shartnomasi, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, ijro chizmalari, mualliflik nazorati jurnali va foto faktlar hamda ijrochining talabiga ko'ra nazorat o'lchovini amalga oshirish uchun boshqa hujjatlar.
12.	Ishlarni bajarish, ketma-ketlik bosqichlari, jadvallar, shuningdek shartnomaning bajarilgan shartlari uchun bosqichma-bosqich to'lash tartibi.	Oldindan to'lov – 50% bo'nak; Qolgan to'lov – 50% xizmat to'liq va texnik topshiriq talablariga muvofiq bajarilib, topshirish-qabul qilish dalolatnomasi buyurtmachi tomonidan e'tirozlarsiz rasmiylashtirilgandan so'ng hisob-faktura asosida amalga oshiriladi.

13.	Hisobotlar <i>(dalolatnoma)</i> formati va tiliga qo'yilgan talablar.	Ko'rsatilgan xizmatlarning natijasi hisobotlari, xizmatlar ko'rsatish xulosalari shaklida rasmiylashtiriladi. Dalolatnoma o'zbek tilida tayyorlanadi va buyurtmachiga qog'oz ko'rinishida 2 <i>(ikki)</i> asl nusxada taqdim etiladi. Hisobot va unga ilova qilinga yig'ma jildda aks ettirilgan barcha hujjatlar elektron formatda <i>(doc, xls, pdf va boshqalar)</i> qattiq diskka saqlangan holda taqdim etiladi.
14.	Ish va xizmatlar natijasini topshirish va qabul qilish tartibi	Ijrochi 10-bo'limda belgilangan muddatda Buyurtmachiga mazkur texnik topshiriq talablariga asosan Qurilish obyektida nazorat o'ltchovini o'tkazish xizmati natijalarini taqdim etadi. Shartnoma asosida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ikki tomonlama imzolangan tegishli bajartilagan ishlar dalolatnomasi bilan tasdiqlanadi.

Ishlab chiqdi:

Buxgalter



S.Aminov